

o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko‘ra, bu ikki ko‘rsatkich o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Bu esa turistik resurslar ortishi bilan sayyohlik safarlari ham oshib borishini, ya’ni ular o‘zaro bog‘liq holda o‘zgarishini ko‘rsatadi.

**Shamengul DARMENBAYEVA, magistrant,
Ilmiy rahbar: Samadjon MAMUROV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi dotsenti, PhD**

O‘ZBEKISTONDA SMART TURIZMNING HOZIRGI HOLATI

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekistondagi smart texnologiyalarini joriy etish, amalga tadbir etishi va O‘zbekistonda turizm sohasida smart texnologiyalarining hozirgi holati yoritilib beriladi. “Smart Tourism” konsepsiyasining afzalliklari va sohadagi so‘nggi statistik ma’lumotlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Smart turizm, raqamli transformatsiya, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari), innovatsion infratuzilma, elektron viza, QR-kod, barqaror turizm, sun‘iy intellekt, “Aqlli shahar”.

Аннотация. В данной статье рассматриваются внедрение и практическое применение смарт-технологий в Узбекистане, а также их текущее состояние в сфере туризма. Анализируются преимущества концепции «Smart Tourism» и приводится анализ последних статистических данных в данной области.

Ключевые слова: Смарт-туризм, цифровая трансформация, ИКТ в туризме, инновационная инфраструктура, электронная виза, QR-коды, устойчивый туризм, искусственный интеллект, «Умный город».

Abstract. This article examines the implementation and practical application of smart technologies in Uzbekistan, as well as their current state in the tourism sector. It analyzes the advantages of the "Smart Tourism" concept and reviews the latest statistical data in this field.

Keywords: Smart tourism, digital transformation, ICT in tourism, innovative infrastructure, e-visa, QR-codes, sustainable tourism, artificial intelligence, Smart City.

Global raqamlashtirish sharoitida turizm industriyasi tub transformatsiyani boshidan kechirib, an’anaviy xizmat ko‘rsatish shakllaridan yuqori texnologik “Smart turizm” (Aqlli turizm) modeliga o‘tmoqda. O‘zbekistonda turizmni iqtisodiyotning strategik drayveriga aylantirish vazifasi qo‘yilgan bir paytda, sohani innovatsion infratuzilma bilan integratsiyalash o‘ta muhimdir. Mazkur tadqiqot “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida turistik salohiyatni zamonaviy AKT yechimlari orqali oshirish zaruriyatiga asoslanadi. Ushbu maqolada turizmning raqamli ekotizm va smart turizmi rivojlanish yo‘llari, muommosi va yechimlar yoritilgan.

Smart turizm tushunchasi ilmiy adabiyotlarda faqat texnologik yangilanish emas, balki turistik ekotizimning barcha ishtirokchilari o‘rtasida ma’lumotlarning uzluksiz almashinuvi sifatida talqin etiladi. Xususan, xalqaro tadqiqotchi Gretzel va boshqalar (2015) smart turizmni “jismoniy infratuzilmaning raqamli texnologiyalar bilan

uyg'unlashuvi orqali sayyohlik tajribasini boyitish" deb ta'riflaydi²¹⁹.

Buhalis va Amaranggana (2013) o'zlarining ilmiy ishlarida smart turizmni "Smart City" (Aqlli shahar) konsepsiyasining mantiqiy davomi sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, smart turizm nafaqat texnologik infratuzilmani, balki barcha turistik resurslarni real vaqt rejimida (real-time) boshqarish va sayyohlar ehtiyojini bashorat qilish tizimidir²²⁰

O'zbekistonda ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar asosan so'nggi yillarda faollashdi. Mahalliy olim B. Safarov (2020) o'z tadqiqotlarida O'zbekiston turizm industriyasini raqamlashtirishda "Smart-destinatsiya" modellarini yaratish zaruriyatini ilmiy asoslab bergan. Uning ta'kidlashicha, milliy turistik mahsulotni jahon bozoriga integratsiya qilishda sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalari xizmatlar xavfsizligi va shaffofligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi²²¹.

N.To'xliyev va I.S.Tuxfatullayevlar o'z ishlarida mintaqaviy turizmni rivojlantirishda innovatsion marketing strategiyalarining o'rni muhimligini ta'kidlaydilar. Biroq, mahalliy adabiyotlarda smart turizmning statistik modellarini yaratish va "Big Data" tahlilini amaliyotga tatbiq etish masalalari hali ham to'liq yoritilmagan ilmiy yo'nalish bo'lib qolmoqda²²².

O'zbekistonda smart turizmning joriy holati qoniqarli bo'lmasa ham bu bo'yicha birqancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan hukumat tomonidan turizmni raqamlashtirish bo'yicha "E-mehmon", "E-visa" va yagona turistik ma'lumotlar portallari muvaffaqiyatli ishga tushirildi. Quyidagi statistik tahlil sohadagi o'sish sur'atlarini aks ettiradi.

1-jadval

O'zbekiston turizm infratuzilmasining raqamli ko'rsatkichlari (2023-2025 yy.)

Ko'rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	2025-yil (prognoz)
Elektron viza (E-visa) oluvchilar soni (ming nafar)	120,5	185,2	260
Smart-muzeylar va QR-kodli obyektlar ulushi (%)	35%	58%	75%
Onlayn bron qilish tizimidan foydalanish darajasi (%)	42%	61%	80%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining yillik tahliliy hisobotlari (uzbektourism.uz) va Milliy statistika qo'mita (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda turizm sohasida AKT xizmatlarining ulushi o'tgan yilga nisbatan 24,5% ga oshgan. Bu ko'rsatkich bevosita "Aqlli Shahar" loyihalari doirasida Samarqand va Buxoro kabi shaharlarda bepul Wi-Fi zonalarining kengayishi bilan izohlanadi²²³.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda smart turizmni to'liq

²¹⁹ Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., & Koo, C. (2015). "Smart tourism: foundations and developments". Electronic Markets.

²²⁰ Buhalis, D., & Amaranggana, A. (2013). Smart Tourism Destinations. Springer

²²¹ Safarov B.Sh. (2020). Turizm iqtisodiyotida innovatsion va raqamli texnologiyalar. O'quv qo'llanma

²²² To'xliyev N., Tuxfatullayev I.S. Turizm iqtisodiyoti: darslik / N. To'xliyev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – 230-245-betlar.

²²³ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>

shakllantirishda quyidagi tizimli muammolar mavjud:

– raqamli tafovut. Toshkent va viloyat markazlarida smart-yechimlar yuqori darajada, biroq ekoturizm va ziyorat turizmi obyektlari joylashgan chekka hududlarda internet qamrovi yetarli emas.

– ma'lumotlar integratsiyasi. Transport, mehmonxona va muzey xizmatlarini birlashtiruvchi yagona milliy smart-platfomaning (Super App) hali to'liq ishga tushmaganligi.

– kadrlar salohiyati. Turizm sohasida ishlayotgan xodimlarning 40% dan ortig'i zamonaviy smart-tizimlar bilan ishlash bo'yicha yetarli malakaga ega emas.

– moliyaviy muommolar. O'zbekistonda smart turizmni rivojlantirishga yetarli darajada iqtisodiy muommolar mavjud.

Ushbu muommolarning yechimi sifatida biz quyidagilarni taklif qilamiz.

1) Infratuzilmaviy yechim (G-GIS): Turistik hududlarda Geografik axborot tizimlarini (GIS) kengaytirish va barcha tarixiy obidalarni yagona 5G-internet qobig'i bilan qoplash.

2) Ekotizim yechimi (Super App): "Visit Uzbekistan" platformasini shunchaki ma'lumot beruvchi saytdan barcha xizmatlarni (aviachipta, mehmonxona, gid, restoran, tibbiy sug'urta) birlashtiruvchi "Super App" darajasiga ko'tarish.

3) Kadrlar yechimi: Oliy ta'lim muassasalarida "Turizmda Big Data tahlili" va "Smart-marketing" fanlarini joriy etish orqali kadrlar malakasini oshirish.

4) Iqtisodiy yechimi. Hukumat tarafidan barcha muommolarni o'rganib byudjetdan kerakli summalarni ajratish yoki investorlarni jalb etish va o'z-o'zini moilalashtirish bo'yicha konsepsialar ishlab chiqish.

Tadqiqot natijasida O'zbekistonda smart turizmni rivojlantirishning uch bosqichli modeli ishlab chiqildi. Birinchi bosqichda – infratuzilmani to'liq raqamlashtirish (Data Collection), ikkinchi bosqichda – davlat va xususiy sektor ma'lumotlarini yagona platformaga integratsiyalash (System Integration), uchinchi bosqichda esa – sun'iy intellekt yordamida xizmatlar sifatini bashoratli tahlil qilish (AI Forecasting) yo'li belgilab berildi. Bu strategik yo'l mamlakatning xalqaro turistik reytinglardagi (masalan, TTDI – Travel & Tourism Development Index) o'rnini yuqoriga ko'tarishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida takidlash lozimki, mamlakatda raqamli infratuzilma jadal shakllanmoqda, biroq tizimli integratsiya va ma'lumotlar tahlili (Big Data) masalalari hali ham o'zlashtirish bosqichida qolmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari sayyohlar oqimini 2024-2025-yillarda o'rtacha 30-40% ga oshishiga bilvosita xizmat qildi. Umuman olganda O'zbekistonning smart turizm modeli jahon tajribasini milliy mentalitet va tarixiy meros bilan uyg'unlashtirgan holda rivojlanishi lozim. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki mamlakatning xalqaro maydondagi innovatsion imidjini ham mustahkamlaydi.